



## KANOP-(HIBISCUS CANNABINUS) O'SIMLIGIGA UMUMIY XARAKTERISTIKA

**Jumaboyeva Feruzabonu Ravshanbek qizi**

*Farg'ona davlat universiteti, biologiya yo'nalishi 3-kurs talabasi*

**Kanop (*Hibiscus cannabinus* L.).** Kanop (*Hibiscus cannabinus*)-g'ozadoshlar oilasiga mansub lub tolali bir yillik o'simlik, tolasini uchun ekiladigan ekin. Kanop yovvoyi holda Janubiy Afrikada va Markaziy Hindistonda uchraydi. Vatani-Hindiston. Eron, Xitoy, Yava va Sumatra orollarida, Afrika, Amerika (AQSH, Braziliya, Kuba). Kanop o'simligi dunyoda 300 000 gektar maydonga ekilib, o'rtacha hosildorligi 120-140 s/ga ni tashkil etadi. Amerika qo'shma shtatlarida kanop 50 000 gektar maydonga ekilib, ko'k poya hosildorligi 200-220 s/ga ni tashkil etadi.

Kanop o'simligi-qimmatbaho tolali ekin hisoblanadi. Uning tolasini o'zining mayinligi, pishiqiligi va yaxshi to'qilishi bilan ajralib turadi. Kanop tolasidan ishlangan mahsulotlar namlikni o'ziga tortishi va tez o'zidan o'tkazishi (gigroskopik) xususiyatlari bilan boshqa texnik o'simliklardan ustun turadi.

Kanop tolasidan olinadigan kanop iplari elektrokabel va gilam to'qish sanoatlarida, xalq xo'jaligida brezent, arqon, o't o'chirish uchun ishlatiladigan egiluvchan shlanglar, mebel matolari tayyorlashda xom ashyo sifatida ishlatiladi. Kanop tolasidan tayyorlangan qoplarda un, guruch, shakar, kofe va boshqa oziq-ovqat mahsulotlarini saqlaganda o'z xususiyatlarini o'zgartirmaydi. Kanop o'zagidan kartonlar, qurilish plitalari yasaladi, gidroliz, qog'oz sanoatida, tamaki korxonalarida ishlatiladi. Kanopni birlamchi qayta ishlashdagi chiqindisi qurilish plitalari, gidroliz sanoatida esa pektin, spirt, furfurola kabi kimyoviy moddalar olish uchun xom ashyo hisoblanadi.

Kanop chiqindilari, barglari, ko'sakchalari va o'zaklaridan o'simliklarning oziqlanishi uchun kompost tayyorlanadi. Kanop urug'idan esa oziq-ovqat uchun



ishlatiladigan qimmatbaho pektin olinadi.



Kanopni parvarishlash. Nihollarning yoshlik paytida parvarishiga katta ahamiyat berish kerak, chunki kanop o'simligi 35-40 kun davomida vegetativ organi juda ham sekin o'sadi, bu vaqtda asosan ildiz tizimi yaxshi rivojlanadi. SHuning uchun kultivatsiyani o'z vaqtida sifatli qilib o'tkazish, begona o'tlarga va zarpechakka qarshi tinimsiz kurash olib borish zarur.

Bo'z va o'tloqi tuproqli dalalarda qatqaloq hosil bo'lishi mumkin. U ayniqsa aprel oyining ikkinchi yarmida ekilgan kanopning unib chiqishiga to'sqinlik qiladi. Ayrim maydonlarda unib chiqqan nihollar esa juda nozik bo'ladi. Agar bu maydonlardagi qatqaloq tezda bartaraf etilmasa ko'chat nobud bo'lishi mumkin. SHuning uchun bunday erlarni tezda yumshatish, tuproqdagi ortiqcha namni qochirish, hamda qizdirish kerak. Bunda kanopning ildiz chirish kasalligiga chalinishga yo'l qo'yilmaydi, gektariga to'liq ko'chat saqlanishiga imkon beradi.

Kanop o'simligini yagana qilish muddatlari o'simligining o'sib-rivojlanishiga va mahsulot sifatiga katta ta'sir ko'rsatadi. O'tkazilgan ilmiy izlanishlar natijasiga ko'ra kanopning O'zbekiston 2268 navi 2-3 chinbarg chiqqanida yagana qilish eng maqbul muddat deb topildi.

Ma'lumki, kanop juda nozik o'simlik hisoblanadi. SHuning uchun, ayniqsa hozirgi murakkab ob-havo sharoitida ekin qator oralarini tezda yumshatish va begona o'tlarni yo'qotish juda ham muhimdir.

Birinchi kultivatsiya davrida kultivatorning ishchi organlarini o'simlikdan 7-8 sm uzoqlikda, rotatsion moslamalarni 5-6 sm, pichoqlarni 6-8 sm, o'tkir uchli g'oz panjalarni 10-12 sm chuqurlikda o'rnatish kerak. Ikkinchi kultivatsiya vaqtida ham agar begona o'tlar ko'p bo'lsa rotatsion moslamalardan foydalanish tavsiya etiladi. Bu ishlovda ham himoya zonasi 7-9 sm ni tashkil etib, rotatsion moslamalar 5-6 sm, naralniklar 8-10 sm va panjalar 12-14 sm chuqurlikda o'rnatiladi. Uchinchi va to'rtinchi kultivatsiyani KKO yordamida o'tkazish yaxshi foyda beradi. Bu himoya



zonasi 6-8 sm ni tashkil qilish, naralniklar 6-8, 8-10, 12-14 sm qilib ostinma-ustin, panjalar 14-18 sm chuqurlikda joylashtirilishi lozim.

Olimlarimiz tomonidan olib borilgan tajribalar shuni ko'rsatdiki, kanopning O'zbekiston 2268 navini o'g'itlashda, ko'k poya uchun ekilgan kanopga har gektar hisobiga 250 kg dan azot, 150 kg dan fosfor va 120 kg dan kaliy, urug'lik uchun har gektariga 200 kg azot, 100 kg fosfor va 100 kg kaliy berish tavsiya etiladi. Agar fosfor va kaliy o'g'itlar 50 % shudgorlash paytida solingan bo'lsa, qolganini parvarishlash davrida qo'llash maqsadga muvofiqdir.

Qator oralig'i 60 va 90 sm bo'lgan maydonlarga jo'yaklar chuqurligi tegishli 14-16 va 18-20 sm ni tashkil etishi lozim, qator oralari 60 sm bo'lgan maydonlar uchun jo'yaklarning uzunligi 100-200 m, 90 sm li erlar uchun esa 200-300 m bo'lishi qulaylik tug'diradi.

O'g'itlarni qo'llash muddatlari. Kanop hosildorligini oshirishda ilg'or texnologiyalardan biri—bu o'g'itlardan to'g'ri foydalanish omillaridan biridir. O'g'itlarning samaradorligi ko'pgina sharoitlarga bog'liq ekanligi ko'p yillik tajribalardan ma'lum. Agrotexnika darajasidan tashqari o'tmishdosh ekinlar, tuproqning agrokimyoviy, agrofizikaviy xossalari va mexanik tarkibi muhim ahamiyatga egadir. Shuning uchun ko'kpoya va urug'lik uchun etishtirilayotgan ertapishar kanopning o'zbekiston 2268 naviga qo'llaniladigan mineral o'g'itlarning miqdori va nisbatini aniqlash katta ahamiyatga ega.

Tekshirishlardan ma'lumki, kanop hosilining 44-45 %i mineral o'g'itlar hisobiga shakllanadi. Kanopdan yuqori hosil olish uchun ertapishar O'zbekiston 2268 naviga qo'llaniladigan mineral o'g'itlarning ta'siri ustida 2012-2014 yillarda tekshirish ishlari olib borildi.

Ko'p yillik tajribalar shuni ko'rsatdiki, kanopning ertapishar O'zbekiston 2268 navi uchun quyidagi mineral o'g'itlar tavsiya etiladi. Ko'k poya uchun bir gektariga azot 250 kg, fosfor 150 kg va kaliy 120 kg. Urug'lik kanop uchun azot 200 kg, fosfor 100 kg va kaliy 100 kg solinsa yuqori hosil olish mumkin.

Kanop mineral o'g'itlarga juda ham talabchandir. Kanopdan 1 sentner hosil tuproqdan 6-8 kg azot, 3-5 kg fosfor va 6-8 kg kaliyni o'zi bilan olib ketadi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Prator O., Shamsuvalieva L. va boshqalar. "Botanika" – T.: "Ta'lim nashriyoti", 2010. (darslik)
2. A.Fahn. Plant Anatomy. USA New York. 2011. (darslik)
3. To'xtaev A.S. "O'simliklar anatomiyasi va morfologiyasi" – T.: "TDPU" 2001. (ma'ruzalar matni)
4. Mustafaev S.M. "Botanika" – T.: "O'zbekiston", 2002. (darslik)



5. Toshmuxamedov R.I. “O‘simliklar sistematikasidan amaliy mashg‘ulotlar” – T.: “O‘zbekiston”, 2006. (o‘quv qo‘llanma)
6. Sharobitdinovich, T. K., Ravshanovich, O. R. I., & Baxtiyarovna, U. F. (2022). LIPA O ‘SIMLIGINING MORFOLOGIYASI VA FIZIOLOGIYASI, FARG‘ONA SHAHAR FLORASIDAGI AHAMIYATI. *Farg‘ona davlat universiteti*, (5), 63-63.
7. Ravshanovich, O. I. THE WORLD OF PLANTS IN THE URBAN FLORA OF FERGANA CITY.